

“O’N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR?” QISSASIDAGI OBRAZLAR

Panjiyeva Zarinabonu Husniddin qizi

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi

Feruza Hafizova

Ilmiy rahbar. Termiz davlat universiteti o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7301625>

Annotatsiya. Mazkur maqolada personajlar sistemasi va uning asar qurilishidagi o’rni, “shafqatsiz realism”, qissadagi kulminatsion nuqtalar ochib berilgan va tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: obraz, syujet, fabula, koflikt, tugun, yechim, kulminatsiya.

“КОМУ НЕТ ВОСЕМНАДЦАТИ?” ОБРАЗЫ В РАССКАЗЕ

Аннотация. В данной статье раскрывается и анализируется система персонажей и ее место в построении произведения, «жестокый реализм», кульминационные моменты повести.

Ключевые слова: образ, сюжет, басня, конфликт, узел, развязка, кульминация.

“WHO IS NOT EIGHTEEN?” IMAGES IN THE STORY

Abstract. This article reveals and analyzes the system of characters and its place in the construction of the work, “cruel realism”, and the climaxes of the story.

Key words: image, plot, fable, conflict, knot, solution, culmination.

KIRISH

O’zbek adabiyotida o’zining ijod yo’lini, shaxsiyatini yarata olgan, millatimizning fidoyi yozuvchisi, haqiqatgo’y adib Shukur Xolmirzayev Surxon elining ardoqli farzandidir. Uning asarlarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o’ziga xos romantikasi ifodalangan bo’lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug’ilib o’sgan. Surxon elida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o’zgarishlar o’zining badiiy talqinini topdi. Shukur Xolmirzayevning “Qil ko’prik”, “Qora kamar”, “To’lqinlar”, “Tog’larga qor tushdi” kabi bir qator mashhur asarlari bo’lsa-da, yozuvchi adabiyot olamida o’zining “O’n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasi orqali shuhrat qozondi. Yozuvchi yigirma besh yoshlik chog’ida yozilgan bu asar o’z davrida juda ko’plab kitobxonlarning muhokama va olqishlariga sabab bo’ldi. Darhaqiqat, o’n sakkizga kirmagan, sevgi bog’larida gul termagan kim bor?! Kimning yuragi shu yoshda o’rtanmagan?! Suyuklisini intizor kutmagan?! Inson borki, sevadi, seviladi... Ba’zan iztirob chekadi, g’amga botadi, goho esa baxtdan osmonlarda kezadi. “O’n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasida ham endigina katta hayot sari otlanayotgan Jamshid, Tilov va Umidaning o’smirlik yillaridagi his-tuyg’ulari, ichki kechinmalari va qalb tug’yonlari aks ettirilgan.

METOD VA METODOLOGIYASI

Asar kompozitsiyasi sodda, ortiqcha bo’rttirishsiz, ravon o’qiladigan qilib yozilgan. Bu jihatdan Shukur Xolmirzayev uslubi Abdulla Qahhornikiga yaqin. Nega deganda, Abdulla Qahhor ham asarlarida ortiqcha bo’yoqlardan foydalanmaydi. Shukur Xolmirzayev ham bu qissasida hamma narsani boricha, o’zgartirishsiz, hayotiy qilib tasvirlab bergan. Asar tugun bilan boshlanadi. Jamshid qorong’u xonada uyg’onadi, qish kunlari, onasi Zaynabxon hali ishdan kelmagan, yonida buvisi uxlab yotardi. Bir payt ostonada onasi paydo bo’ladi, biroq u yolg’iz emas edi. Onasi bilan birga u hozirgina partkom qilib tayinlangan “G’alaba” kolxozining

raisi Jalolov ham kelgan edi. Zaynabxonning yolg'iz kelmasligi, Jalolovning Jamshidlarnikida tunab qolishi bir necha marotaba takrorlanadi va bu holat oxir oqibat Zaynabxon va Jalolovning turmush qurishi bilan yakunlanadi. Asarning asosiy mazmun va voqealari esa, shundan so'ng boshlanadi. Qissaga Jalolovning o'g'li- Tilov kirib keladi. U avval boshidan otasini Zaynabxon va Jamshiddan qizg'onadi. Shu sababdandir, Tilov va Jamshid orasida bolalikdanoq devor paydo bo'la boshlaydi. Ana endi uch nuqta bir doirada jam bo'ladi: Jamshid, Tilov va Umida. Bolalar maktabga birga borib, birga qaytar, birga vaqt o'tkazar edi. Bolalikning beg'ubor damlari mana shunday tarzda yel kabi o'tib ketdi. Ular endi hech qanday g'ami yo'q bola emas, ulg'ayishdi, katta hayotga qadam tashlash arafasida. Bundan buyon qanday yashashi mana shu muhim nuqtada hal bo'ladi. Afsuski, ular adashishdi. O'tkinchi hislarga aldanishdi. Umida o'smirlik paytlaridan Jamshidga o'zgacha nazar bilan qarar edi, hayotining markazida uni tasavvur qilar edi. Baxtga qarshi Tilovning ko'ngli Umidaga tomon talpina boshlagan edi. Jamshid esa Umidaga befarq emasligini, akasi Tilov orqali anglab yetadi. Lekin, afsuski, endi kech...U Tilovni o'gay bo'lsa-da, yaxshi ko'rardi. Akasining hurmati sababdan, Umidaga bo'lgan hislarini anglata olmadi. Natijada, uchovlonning ham hayoti izidan chiqib ketdi. Umida ichidagi Jamshidga bo'lgan nafrat o'tini Tilovni tanlab o'chirmoqchi bo'ldi. Buni quyidagi: "U Tilovning qo'liga suyanib, Jamshidga kinoyali kulimsirab o'rnidan turdi. Jamshid boshini egdi... Shu "ish" o'tdi-yu Umida yuragida chirsillayotgan mushakning o'ti andak pasayganini sezdi. So'ng birdan u ko'chadagi ko'rinishni Tilovlarning uyiga ko'chirdi, ko'chirdi-yu, o'zining qaddi-basti bir gaz o'sganini xis etdi,"-degan parchada ko'rishimiz mumkin. Mana shu o't uchalasini ham o'z domiga torta boshladi. Kattalarning qarshiligiga qaramay, Umida va Tilovning to'yi bo'ldi. Lekin, Umida o'ylagan vaziyatini emas, umuman boshqa vaziyatning qarshisida qoldi: "Umida to'yning ertasiga uyg'onib, o'zini qip-qizil baxmallar bilan bezatilgan notanish uy ichida ko'rdi va atrofga gangib nazar soldi. - Endi men kelin?!- o'zini salmoqli bir narsa birdan bosganini xis qildi va hayoliga lip etib Jamshid keldi. - Qaynim! qaynim... Xe. -Bu so'z endi unga favqulodda hech qanday lazzat bermay qo'ydi." Shu tariqa o'tkinchi hissiyotlar badali Umidani o'z domiga tortib ketdi. Shu o'rinda Shukur Xolmirzayevning: "...muhabbatning ijodga ta'siri haqida gap ketadigan bo'lsa, fikrim shu: ijodning tagida aslida muhabbat yotadi,"¹¹- degan fikrini aytish joiz. Qissada mana shunday nekbin, beg'ubor tuyg'u egalarining taqdiri aks ettirilgan. Qissadagi qahramonlar oddiy kun kechirayotgan, bir qarashda, Vatanga, millatga daxli yo'q odamlardir.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o'tkirki, ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, Vatanga daxldor dardlarni ko'ra biladi. "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" asarida ham yozuvchi chetdan oddiy ko'ringan, aslida achchiq haqiqatni ifodalagan "shafqatsiz realizmni ifodalab bergan. Asar boshdan-oyoq konflikt ustiga qurilgan. Jamshid va Tilovning o'zaro munosabatlari yoki bo'lmasam kolxoz raisi Jalolov va Zaynabxonning muloqotidagi qarashlar ham konfliktga yaqqol misol bo'la oladi. Qissa voqeaband syujet asosiga qurilgan bo'lib, undagi voqealar zanjiri bir tekisda, maromiga yetkazib ko'rsatib berilgan. Shu sababdan ham asar tili oson, ravon o'qiladi. Epik asar kompozitsiyasining o'zagini syujet tashkil qiladi. Bu tabiiy ham. Chunki, voqeabandlik-epik asar tabiatini belgilovchi xususiyat, bu turdagi asarlar makon va zamonda kechuvchi voqealarni hikoya qilish asosiga quriladi. Ma'lumki,

¹¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006

fabula voqealarning tabiiy oqimi bo'lsa, syujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya'ni badiiy qayta ishlangan shaklidirki, shu bois ayrim manbalarda "fabula o'rniga "syujet", "syujet" o'rniga "syujet kompozitsiyasi" termini ishlatiladi¹² Qissaning so'ngi ham asar syujetiga mos ravishda yakunlanadi. Aslini olganda Shukur Xolmirzayev hech qaysi asarida kitobxonga o'z fikrini o'tkazishga harakat qilmaydi, xulosani doim o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. Buni isboti sifatida yozuvchining quyidagi: "... shaxsan men kitobxonni bir yoqqa torta bilgan, uning didiga mo'ljallab – unga asarini nima qilib bo'lsa-da, yoqtirish maqsadida emas, o'sha didni bir bahya bo'lsa-da ko'tarish niyatida ter to'kkan yozuvchilarni sevaman..." degan fikrini ko'rsatishimiz mumkin. Shunday qilib, "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasining yakunidagi xulosani ham yozuvchi kitobxonlar e'tiboriga qo'yib beradi.

XULOSA

Zero, bu qissada har bir kitobxonga o'zidan kelib chiqqan holda kerakli xulosa chiqarishga yetarlicha zamin yaratilgan.

REFERENCES

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.-Toshkent: Navoiy Universiteti,2018.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z-Toshkent: Yangi asr avlodi,2006.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent: O'zbekiston, 2002.

¹² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.-Toshkent:Navoiy universiteti,2018.